

QO'SHMA SO'ZLAR TASNIFI

*Ilmiy rahbar: NDPI xorijiy tillar
fakulteti o`qituvchisi M.T. Gapparova
4-kurs talabasi K.M.Ostonova*

Annotatsiya: Ushbu maqolada ingliz va o'zbek tillaridagi qo'shma so'zlar yasaliş strukturasi o'xshash va farqli tomonlari haqida fikr yuritiladi. Shuningdek, barcha fikrlar misollar orqali tahlil qilinadi.

Kalit so'zlar: qo'shma so'zlar, morfema, leksema, closed or solid form, hyphenated form, open or spaced form.

Abstract: This article discusses the similarities and differences in the structure of compound words in English and Uzbek. Also, all points are analyzed through examples.

Key words: compound words, morpheme, lexeme, closed or solid form, hyphenated form, open or spaced form.

Аннотация: В данной статье рассматриваются сходства и различия в структуре сложных слов английского и узбекского языков. Также все моменты разбираются на примерах.

Ключевые слова: сложные слова, морфема, лексема, closed or solid form, hyphenated form, open or spaced form.

Ikki yoki undan ortiq o'zak morfemaning qo'shilishidan hosil bo'lgan va yagona struktur-semantik birlikni tashkil etgan so'zlarga qo'shma so'zlar deyiladi. Muzqaymoq, taklifnoma, darsxona, mehmondo'st, balandparvoz, kamhosil, atirgul, ko'zoynak kabi so'zlar qo'shma so'zlarga misol bo'ladi. Qo'shma so'zlar yasaliş uchun asos bo'lgan so'zlar o'zlarining dastlabki ma'nolarini qisman yoki butunlay yo'qotadi: ular birgalikda umuman yangi lug'aviy ma'noni anglatadi. Mehmondo'st yoki ko'zoynak so'zlarini misol tariqasida ko'rsak, mehmon va do'st yoki ko'z va oynak so'zlari o'z lug'aviy ma'nolariga ega alohida leksemalar hisoblanadi. Lekin bu so'zlarning qo'shilishi natijasida o'z ma'nosidan uncha farq qilmagan holda yangi so'zlar hosil bo'lmoqda, ya'ni mehmondo'st – qo'li ochiq, mehmonsevar ma'nosida, ko'zoynak esa bir buyum sifatida yangi ma'noni anglatmoqda. Qo'shma so'z bir butun leksik ma'no - bir murakkab tushuncha va yaxlit shakllanish - grammatik strukturasi ham yaxlitligi, fonetik butunlik bilan xarakterlanadi: demak, u bir so'zdir, uning komponentlari - qismlari orasida grammatik aloqa yo'q, u har qanday so'z qo'shilmasida - gapda, so'z birikmasida - bir sintaktik funksiyani bajaradi. Qo'shma so'z, sodda so'zlar kabi, tilning bir birligi bo'lib, undan nutqda har gal tayyor leksik material sifatida foydalanamiz. Qo'shma so'zlar ot, sifat, ravish va

qisman fe'l turkumida tarqalgan. Masalan, qo'shma otlar ot+ot (ko'zoynak), sifat+ot (balandparvoz), son+ot (beshbarmoq), fe'l+ot (Yoril-tosh), ot+fe'l (bo'yo'sar), fe'l+fe'l (uxlab-qoldi) kabi qoliplarda bo'ladi. Boshqa so'z turkumlariga oid qo'shma so'zlar ham o'ziga xos qoliplar asosida yasaladi.

Ingliz tilida ham qo'shma so'zlar shu kabi yasaladi, lekin ba'zi jihatlari bilan farq qiladi. Ingliz tilida qo'shma so'zlar tuzilish shakliga ko'ra uch ga bo'linadi, birinchisi closed form, ikkinchisi hyphenated form, keyingisi open or spaced form. Qo'shma so'zlarning birinchi **closed or solid shakli** yuqoridagi misollar kabi bir biriga qo'shib yoziladi, ya'ni ularni ajratgan holda foydalanib bo'lmaydi. Lawsuit, housewife, toothbrush, starfish, runway, watermelon, butterfly shular jumlasiga kiradi. Keyingi shakli bu **hyphenated form**, bunday qo'shma so'zlar har doim chiziqcha bilan yoziladi. Misol uchun mother-in-law, well-being, one-sided, one-way, mind-blowing, old-fashioned, short-term kabi. Uchinchi shakli esa **open or spaced form** bo'lib, bunda so'zlar chiziqchalarsiz alohida ajratib yoziladi, masalan, player piano, distance learning, police officer, science fiction, ice cream, post office. Mana shu uchinchi shaklda yasalgan qo'shma so'zlar ba'zi tomonlaridan so'z birikmalariga o'xshab ketsa ham bu ikkalasi grammatik qoidalar asosida bir biridan farq qiladi. Qo'shma so'zlar, sodda so'zlar kabi, tilning bir birligi hisoblanib, undan nutqimizda doimo tayyor leksik material sifatida foydalaniladi, so'z birikmasi esa bu kabi emas, u nutq jarayonida ma'lum bir qonun qoidalar asosida paydo bo'ladi. So'z birikmasidagi har bir so'z, mustaqil so'z o'zaro grammatik aloqaga ega bo'ladi, shu sababli, bu sintaktik hodisadir. Masalan, kitobning varog'ida aniqlovchi va aniqlanmish shaklida bo'lganda bu so'z birikmasidir. Demak tuzilishiga ko'ra farqlari misollar orqali ko'rib chiqildi.

Ingliz tili grammatikasida qo'shma so'zlar yasaliş jarayonida so'zni tashkil etuvchi hosila asoslar ma'nolaridan va so'z yasaliş qolipining ma'nosidan birikma ma'nosini chiqarish mumkin, chunki qo'shma so'z ma'nosi ham komponentlar tartibiga bog'liq. Qo'shma so'z tarkibidagi yasaliş uchun asos bo'lgan so'zlarning ma'nosi umumiy ma'noga aloqador yoki aloqador emasligiga ko'ra quyidagi turlarga bo'limadi:

1. Fully motivated
2. Partially motivated
3. Non motivated

Birinchi turi **fully motivated** ga e'tibor qaratsak, bunda qo'shma so'zni tashkil etuvchi so'zlarning barchasida yangi hosil bo'lgan so'zga aloqadorligi bo'ladi. Ya'ni yasalişgan so'zlarning ma'nosi ham qo'shma so'zning ma'nosiga bog'liq. Misol uchun sky-blue, new-born, snow-white, birdcage, headache, battleship so'zlarini tahlil qilaylik, new-born so'zida new- yangi, born esa tug'ilgan ma'nosini anglatib, ular birgalikda qo'shma so'z tarkibida yangi tug'ilgan ma'nosini anglatmada, qolgan

misollarda ham xuddi shundek, ikki so'zning ham ma'nosi yangi ma'no uchun xizmat qilmoqda.

Ikkinchi turi esa **partially motivated** bo'lib, bunda nomidan ko'rinib turganidek, qo'shma so'z tarkibidagi so'zlardan biridagina qo'shma so'z ma'nosiga aloqador ma'no mavjud. Masalan, **flower-bed, castle-builder, day-dreamer, couch potato**. Flower – bed so'zida flower- gul ma'nosini, bed bo'lsa yotoq ma'nosini bildirsa ham qo'shma so'zning ma'nosi **gullar maydoni** degan tarjimani anglatadi. Demak bu qo'shma so'z tarkibidagi birgina flower so'zining ma'nosi qo'shma so'zning ma'nosiga aloqador. Mana shunday birgina so'zning ma'nosi umumiy ma'noga tegishli bo'sa, bunday qo'shma so'zlarga **partially motivated compound words** deyiladi.

Keyingi turi **non-motivated** bo'lib, qo'shma so'z tarkibidagi hech bir so'zning ma'nosi qo'shma so'zning yasalishida ma'no anglatmaydi. Eye- wash so'zida eye ko'z, wash esa yuvmoq ma'nolarini bildirsa ham **eye-wash** so'zining ma'nosi **aldamoq** degani.

Xulosa qilib aytganda, qo'shma so'zlar yozilish jihatidan o'zbek tili grammatikasidagi qo'shma so'zlar bilan deyarli o'xshash. Ammo har bir til grammatikasining o'z qoidalari bor bir biriga o'xshamas.

FOYDALANILGAN SAYTLAR

1. <https://www.scribbr.com/language-rules/compound-words>